

BOSHLANG’ICH MAKTABDA INTEGRATSIYALASHGAN TA’LIMDAN FOYDALANISH

Umarova Dilafro’z Anvarovna

*Shahrisabz davlat pedagogika instituti “Boshlang’ich ta’lim metodikasi”
kafedrası o’qituvchisi*

Ortiqova E’zoza Olimjon qizi

*Shahrisabz Davlat pedagogika institute boshlang’ich ta’lim yo’nalishi 4-kurs
talabasi*

Annotatsiya: Ushbu ilmiy maqolada boshlang’ich sinfda integratsiyalashgan ta’limdan foydalanish, integratsiyaning afzalliklari, o’quvchilarga qanday ijobiy ta’sir etishi, boshlang’ich sinflarda integratsion darslarda qanday zamonaviy usullar qo’llanilishi haqida va bo’lajak boshlang’ich sinf o’qituvchilarini integratsiyalashgan ta’lim berish ko’nikmalarini yanada mahorat bilan o’tishi uchun ommalashgan hamda zamonaviy metodlar, texnologiyalar haqida ma’lumotlar berilgan,

Kalit so’zlar: Integratsiya, integrativ dars, fanlararo aloqadorlik, ta’lim, metod, klassika, metodika, aloqadorlik.

Аннотация: В данной научной статье рассматривается использование интегрированного обучения в начальной школе, преимущества интеграции, ее положительное влияние на учащихся, а также использование начальных технологий.

Ключевые слова: интеграция, интегративный урок, межпредметная связь, образование, метод, образовательная система, объект

Abstract: This scientific article discusses the use of integrated education in the primary classroom, the benefits of integration, how it positively affects students, and the use of primary technologies.

Keywords: integration, integrative lesson, interdisciplinary connection, education, method, educational system, object

Inson va butun jamiyatning shakllanish, rivojlanish sharti doimo ta’lim bo’lgan va shunday bo’lib qoladi. Bugungi kunda 21-asr ta’lim tizimi ancha murakkablashgan va

texnologiyalar rivojlangan asri desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Ayni damda istalgan sohamizda yangilik, imkoniyat, qulayliklarni ko‘rishimiz mumkin. Shuningdek O‘zbekistonda ham ta‘lim sohasida islohat, innovatsiyalar amalga oshirilmoqda va qonun bilan jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e‘tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeidan qat‘iy nazar, har kimga ta‘lim olish uchun teng huquqlar kafolatlanadi. Zamonaviy ta‘lim tizimining asosiy vazifalaridan biri – o‘quvchilarda mustahkam bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirishdir. Ayniqsa, boshlang‘ich ta‘lim bosqichida o‘quvchilarning tafakkurini rivojlantirish, ularga puxta bilim berish dolzarb masala hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, integratsiyalashgan ta‘lim yondashuvi bugungi kunda o‘z dolzarbligini yo‘qotmayapti. Integratsiya darslari bugungi o‘quvchilar uchun ayni muddao bo‘lib, ularni zamon bilan birgalikda darslar orqali rivojlanishiga olib keladi. Ya‘ni integratsiyaga oid, milliy dasturimiz asosida tuzilgan qo‘llanma kitoblardagi har bitta mashqlar, rasmlar, turli qizaqarli savollar o‘quvchilarni har tomonloma chet mamlakatlar yoshlari bilan ayni boshlang‘ich sinfdan boshlab raqobatlashaoladigan darajaga olib keladigan darsliklar tuzilgan. Integratsiya ta‘lim maqsadi sifatida olam tizimining alohida qismlari bog‘liqligini ko‘rsatuvchi bilimlarni berish emas, bolani barcha elementlari bir-biriga bog‘lik yaxlit olamni tasavvur qilishga birinchi qadamlarida o‘rgatish kerak. Bu maqsadni boshlang‘ich maktab amalga oshirishi kerak. Integratsiya-predmetli bilimlar chegarasida yangi tasavvurlarni qabul qilish vositasi. Birinchi navbatda tabaqalashni bilimlar orasida bilmagan joylarni to‘ldirish, ular orasidagi aloqalarni o‘rganish lozim. Jahon ta‘lim tizimini o‘rgangan holda, O‘zbekistonda integratsiyalashgan ta‘lim 2022- yildan boshlang‘ich sinflarga joriy etildi. Bu jarayon boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ijobiy natijalar ko‘rsatdi. Boshlang‘ich sinflarda tasavvur olamlari kengaya boshladi, ko‘proq ma‘lumotlar va bilim ola boshlashdi. Boshlang‘ich sinflarda integratsiyalashgan ta‘lim berishning zamonaviy metodlarining o‘rni va ulardan foydalanishda quyidagi tavsiyalarni beramiz: 1. Vaqtdan unumli foydalanish kerak; 2. Fanlarning o‘zaro bir -biri bilan bog‘ligiga ahamiyat berish zarur; 3. Integratsiya darslari aynan o‘quvchilarda o‘z natijasini ko‘rsatyotganligini tahlil qilish lozim; 4. O‘qituvchining o‘z ustida ishlashi(rivojlanishi); 5. O‘quvchilarning psixologik xususiyatlarini inobatga olish zarurligi; 6. Yosh hususiyatlariga alohida e‘tibor berishi lozim; 7. O‘quvchilarning qiziqishlariga o‘qituvchi ahamiyat berishi kerak; 8. O‘qituvchi fikrlash qobiliyatini rivojlantirishi, yangilik yaratishga moyil

bo‘lishi kerak; 9. Har bir dars muayyan yo‘naltirilgan maqsadga ega bo‘lishi lozim; 10.O‘qituvchi darsga bir kun oldindan tayyorgarlik ko‘rishi kerak; 11.O‘qituvchi integratsiya darslarida metodlardan foydalanishni bilishi zarur. O‘qituvchilar integratsiyalashgan darslarni o‘tishda yuqoridagi takliflarni inobatga olsa, shuningdek dars o‘tish jarayoni va o‘quvchilarning darsni tushunishi murakkab bo‘lmaydi, hamda darsning samaradorlik darajasi ko‘tariladi.Boshlang‘ich ta’limda integratsiyani amalga oshiruvchi bo‘g‘in vazifasini o‘qituvchining o‘zi amalga oshiradi. U bolalarning arifmetikaga, yozishga, tabiat va ko‘pgina boshlang‘ich tushunchalarga o‘rgatadi. O‘z kuch va imkoniyatlari darajasida bu ishni amalga oshiradi. Boshlang‘ich ta’limda integratsiyani bir-biriga nisbatan yaqin fanlarni birlashtirish asosida ko‘rish maqsadga muvofiq. Ta’limning keyingi pog‘onalarida u asosiy fanlarning chegaralarini birlashtirishga harakat qiladi. Boshlang‘ich ta’lim-tarbiyani integratsiyalashda ijobiy va salbiy omillar mavjudligini hisobga olish kerak. Bu omillar integratsiyaning usullarini belgilab beradi. Y.M.Kolegin va O.L.Aleksenko integratsiyaning salbiy omillarini ko‘rsatib beradilar: o‘quv predmetlarining chegaralangan soni - olinayotgan katta hajmdagi bilimlarning mazmuni olamning haqiqiy ko‘rinishini, qismlarining o‘zaro bog‘liqligini aks ettirish bilan to‘ldirish mumkin. Juda muhim bo‘lgan o‘qish, yozish va sanoq ko‘nikmalarini shakllantirish zarurati. Bu narsalar xuddi fanlarga bo‘linib o‘qitishni talab qiladiganga o‘xshaydi. Lekin o‘qish va matematikani o‘qitishning an’anaviy tajribasi ham keng integratsion imkoniyatlar haqida dalolat beradi. Bunda o‘qish fan sifatida o‘z ichiga faqat badiiy matnlarni emas, tarix, tabiatshunoslik bo‘yicha materiallarni oladi. Matematika, arifmetika, algebraik va geometrik materiallarni o‘z ichiga oladi. Bunday integratsiya muhim ko‘nikmalar hosil qilishga halaqit bermaslik, aksincha, ularni shakllantirishga kafolat beradi.

Integratsiyalashgan ta’lim – bu turli fanlar o‘rtasidagi aloqadorlikni ta’minlagan holda bilimlarni uyg‘unlashtirib o‘rgatish usulidir. Bu yondashuv orqali o‘quvchilar mavzularni kengroq kontekstda tushunishadi, real hayotiy vaziyatlarga tatbiq eta olish qobiliyatlari rivojlanadi.Boshlang‘ich ta’lim yoshidagi o‘quvchilar mavhum tushunchalarni emas, balki real, ularning hayoti bilan bog‘liq ma’lumotlarni yaxshi qabul qilishadi. Shu bois fanlararo bog‘liqlikni ta’minlash ularning fikrlash va kuzatish qobiliyatlarini oshirishga xizmat qiladi. Masalan, "Tabiatshunoslik" darsida o‘rganilayotgan mavzu "Ona tili" darsida o‘qilayotgan matn bilan bog‘lanishi

mumkin. Bu orqali bolada bilimlarning yaxlitligi shakllanadi. Integratsiyaning afzalliklari

1. Mavzularni chuqur tushunishga yordam beradi.
2. Fanlararo bog‘liqlik orqali o‘quvchining dunyoqarashini kengaytiradi.
3. Ijodiy fikrlash va muammoli vaziyatlarni hal qilish ko‘nikmalarini shakllantiradi.
4. Ta’lim jarayonini jonli va qiziqarli qiladi.

Misol qilib: Matematika darsida "o‘lchov birliklari" mavzusi o‘tilayotganda, texnologiya yoki tasviriy san’at darslari bilan integratsiyalab, o‘lchamli buyumlar yasash orqali mavzuni mustahkamlash mumkin. "O‘qish" fanida ekologik mavzular aks ettirilgan matnlar tanlab olinib, bu mavzu tabiatshunoslik bilan bog‘lanadi. Boshlang‘ich ta’limda integratsiyalashgan yondashuv ta’lim samaradorligini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Fanlararo bog‘liqlik orqali o‘quvchilar bilimlarni yaxshiroq o‘zlashtiradi, ularni real hayotda qo‘llash ko‘nikmalariga ega bo‘ladi. Shu boisdan pedagoglar integratsiyalashgan yondashuvni amaliyotga joriy etish borasida izlanishlar olib borishlari lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. "O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi" 2017.02.07.
2. <https://lex.uz/acts/-3107036>
3. R.Mavlyanova, N.Raxmankulova. "Boshlang‘ich ta’lim pedagogikasi, innovatsiya va integratsiyasi, Toshkent "Voris nashriyot", 2013.
4. R.A.Mavlonova, N.H.Rahmonqulova. "Boshlang‘ich ta’limning integratsiyalashgan pedagogikasi", Toshkent "Ilm ziyo", 2009.
5. T.G'afforova, E.Shodmonov, G.Esh turdiyeva. 1-sinf "O‘qish kitobi", "Sharq" Nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, Toshkent-2018.
6. T.G'afforova, E.Shodmonov, X.G‘ulomova. 1-sinf "Ona tili", "Sharq" Nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, Toshkent-2018.
7. Ziyonet.uz
8. Saloydinov, S. Q. (2021). Paxta tozalash zavodlarida energiya sarfini kamaytirishning texnik-iqtisodiy mexanizmini yaratish. "Academic research in

educational sciences”, 2(9), 886-889. <https://doi.org/10.24412/2181-1385-2021-9-886-889>

9. Saloydinov, S. Q. (2021). Creation of feasibility studies to reduce energy costs in ginneries. "Экономика и социум", 9(88), 147-149.

10. Салойдинов, С. К. (2021). Образовательные кредиты в Узбекистане. "Экономика и социум", 12(91), 470-472.

11. Салойдинов, С. К. (2021). Спрос на рынке дифференцированных продуктов. "Экономика и социум", 12(91), 473-476.

12. Салойдинов, С. К. (2022). С паровой турбиной 471 МВт на Талимарджанской ТЭЦ расчет электрических режимов при максимальной зимней нагрузке. "Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS)", Special issue, 116-121.

13. Сардоржон Кодиржон Угли Салойдинов. (2022). Инновационное решение для получения биогаза. "Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS)", 2(3), 280-285.